MINTAQAVIY LOGISTIKA MARKAZLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA “YASHIL LOGISTIKA” TAMOYILLARINI JORIY ETISH

Zahro Ro’ziboyeva
Farg’ona davlat universiteti tayanch doktoranti
zahroruziboyeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda transport-logistika tizimlarini barqaror rivojlantirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yashil logistika konsepsiyasini joriy etishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, transport jarayonlarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish, uglerod izini minimallashtirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda raqamli texnologiyalar asosida transport marshrutlarini optimallashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot yakunida transport sohasida yashil logistika tamoyillarini keng tatbiq etish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Аннотация: В данной тезисе освещены теоретические и практические аспекты внедрения концепции зеленой логистики в условиях устойчивого развития транспортно-логистических систем и модернизации экономики. Также проанализированы вопросы снижения негативного воздействия транспортных процессов на окружающую среду, минимизации углеродного следа, рационального использования ресурсов и оптимизации маршрутов перевозок на основе цифровых технологий. В заключении разработаны научные предложения и практические рекомендации по широкому внедрению принципов зеленой логистики в транспортной сфере.

Abstract: This thesis highlights the theoretical and practical aspects of implementing the green logistics concept within the context of the sustainable development of transport and logistics systems and economic modernization. It also analyzes issues related to reducing the negative environmental impact of transport processes, minimizing the carbon footprint, rational resource utilization, and optimizing transport routes using digital technologies. In conclusion, scientific proposals and practical recommendations are developed for the widespread integration of green logistics principles in the transport sector.

Kalit so’zlar: yashil logistika, barqaror rivojlanish, transport-logistika tizimi, uglerod izi, ekologik xavfsizlik, raqamli texnologiyalar, optimallashtirish.

Ключевые слова: зеленая логистика, устойчивое развитие, транспортно-логистическая система, углеродный след, экологическая безопасность, цифровые технологии, оптимизация.

Keywords: green logistics, sustainable development, transport and logistics system, carbon footprint, environmental safety, digital technologies, optimization.

Bugungi kunga kelib, global iqlim o'zgarishi insoniyatdan barcha sohalarda, shu jumladan, iqtisodiyotda ham iqlim o'zgarishlarini inobatga olgan holda faoliyat ko'rsatishni taqozo etmoqda. Transport-logistika sohasi ham bundan mustasno emas. Tashkil etilayotgan har bir jarayon ayniqsa, transport-logistika sohasi atrof-muhitga eng ko'p zarar yetkazadigan sohalardan biri bo'lib kelganligini inobatga oladigan bo'lsak, ekologik talablarga moslashish, mintaqaviy logistika markazlarini "Yashil logistika" markazlariga aylantirish, davlatimizning yashil iqtisodiyotga o'tish shartlaridan biri hisoblanadi. "Karbonat angidrid gazi insonlarni iqtisodiy va ijtimoyi faoliyatida ishlatadigan yoqilg'ilaridan ajralib chiqadi. Masalan, avtomobilda 1 litr benzinni yoqish – 1,93 kg CO_2 ekvivalentidagi chiqindi chiqarilishiga yoki 1 kg ko'mir yoqilishi atmosferaga 2,8 kg CO_2 ekvivalentidagi zaharli gaz chiqindi chiqarilishiga sabab bo'ladi."[1] Iqtisodiy jarayonlarni borishida asosiy jarayon bu tashish va saqlash jarayonlaridir. Bularsiz yaxlit bir tizimni tasavvur etish qiyin. Ayniqsa, zavoddan to iste'molchigacha yetib borishida sodir bo'ladigan xarajatlar, butun bir ishlab chiqarish jarayonida sodir bo'ladigan jarayonlarning xarajatini katta qismini tashkil etishi mumkin. Dolzarb muammoga aylanib borayotgan atmosferaning ifloslanishi va kundan kunga energiyatejamkor va "yashil manbaalar"ga o'tish, sekin astalik bilan logistika sohasini ham chetlab o'tmayapti.

"Yashil logistika" konsepsiyasining asosiy maqsadi ham shundan iborat bo'lib, avtomobil qatnashgan barcha jarayonlarni, tashish, qadoqlash, saqlash va sotishda foydalanilinadigan barcha sohalarda avtomobildan chiqayotgan zaharli gaz va chiqindilar miqdorini iloji boricha minimallashtirishga qaratilgan. "Yashil logistika"ning asosiy maqsadi quyidagilar deyishimiz mumkin:

- Uglerod chiqindilarini kamaytirish;
- Resurslardan oqilona foydalanish;
- Optimallashtirilgan marshrutlash;
- Teskari logistika;

II sanoat inqilobi boshlanganidan buyon, sanoatning har bir bo'g'inini transportsiz tasavvur etish qiyin masala hisoblanadi. Tabiiyki, muqobil energiya manbalari topilgunga qadar asosiy yoqilg'i faqatgina neftdan olingan va hozirgi kunda ham mamlakatimizda foydalaniladigan asosiy transport turlari, aynan neft mahsulotlari hisoblanadi.Bugungi kunda esa, bosqichma-bosqich muqobil energiya resurslari bilan harakatlanuvchi transport vositalaridan foydalanishga rag'bat oshib bormoqda. Bu esa yashil logistika konsepsiyasiga o'tilayotganining musim belgisidir. Bundan tashqari, transport vositalaning harakatlanishini, manzilga yetishi uchun qisqa va qulay yo'llarda harakat qilishini

[1] https://fanvatalim.uz/uz/article/176/

ta’minlash uchun, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirish, ortiqcha xarajatlarni oldini olish imkoniyatini yaratadi. Omborlarda energiya tejovchi va muqobil energiyadan foydalanilgan holda ishlaydigan texnologiyalarni tadbiq etish, qayta ishlanadigan mahsulotlardan qadoqlash uchun foydalanish, ishlatilgan mahsulotlar, ularning qadoqlari va chiqindilarni yig’ishni ma’lum bir tizimini ishlab chiqish,ularni qayta ishlash yoki utilizatsiya qilish jarayonlarini tashkil etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarida yashil logistika konsepsiyasini qo’llagan bo’lamiz.

Transport-logistika tizimlarini barqaror rivojlantirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yashil logistika konsepsiyasini joriy etish nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlash, balki tarmoqning iqtisodiy samaradorligini oshirishning strategik omili hisoblanadi. ashil logistika an’anaviy logistikadan farqli o’laroq, transport jarayonlarining atrof-muhitga salbiy ta’sirini minimallashtirish bilan birga, resurslarni tejash, yoqilg’i sarfini qisqartirish va ombor xo’jaligida energiya samaradorligini oshirish orqali korxonalarning xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. ashil logistika tamoyillarini samarali tatbiq etish transport marshrutlarini optimallashtirish, sun’iy intellekt va IoT (buyumlar interneti) texnologiyalarini logistika zanjiriga integratsiyalash hamda real vaqt rejimida monitoring qilish tizimlarini rivojlantirish bilan chambarchas bog’liq. Transport-logistika xizmatlari bozorida ekologik toza transport vositalariga (elektromobillar, muqobil yoqilg’i turlari) o’tishni tezlashtirish uchun davlat tomonidan yashil soliqlar, imtiyozli subsidiyalar va moliyaviy rag’batlantirish mexanizmlarini kengaytirish talab etiladi. Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi transport sohasining ekologik barqarorligini ta’minlash bilan birga, hududlarning xalqaro transport yo’laklaridagi raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ghiani G., Laporte G., Musmanno R. Introduction to Logistics Systems Management. – Wiley, 2022.
2. Christopher M. Logistics and Supply Chain Management. – Pearson Education, 2016.
3. Lambert D. M., Cooper M. C. Issues in Supply Chain Management. – Industrial Marketing Management, 2000.
4. Ibodullayev A.A., Gulov M.G‘., Muxtorov I.A. Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda tashqi iqtisodiy savdoning ahamiyati. "Iqtisodiyot" nashriyoti, Toshkent, 2023. (Darslik)
5. Irisbekova M.N. Xalqaro logistik xizmatlar tizimi. Toshkent avtomobil yo‘llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi instituti nashriyoti, Toshkent, 2022. (Darslik)